

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti rektori

Sh.Sirojiddinov

2022-yil “5” sentabr

70230103 - Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura
mutaxassisligining fanlar kesimida kasbiy kompetensiyalar

JADVALI

| T/r | Fan nomi | Fan kodi* | Fan qaysi kursda o'qitilishi | Fan yordamida egallanadigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar |
|------------------------|-------------------------------|-------------|------------------------------|---|
| Majburiy fanlar | | | | |
| 1. | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 302ITM 1 5 | 1 | Fan doirasidagi asosiy masalalar ilmiy ish olib borish yuzasidan boshlang'ich bilimlarni shakllantirish, lingvistik terminlarni o'zlashtirish, adabiyotlarni o'rganish va ulardan foydalanish, havola berish tartibi, nazariy masalalarni tahlil qilinishi va yoritilishini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. |
| 2. | Xalq og'zaki ijodi poetikasi | 302XOIP 1 5 | 1 | Xalq og'zaki ijodi poetikasi, folklorning so'z san'ati ekanligi, folklor janrlari, xalq og'zaki ijodi genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, adabiyot va folklor munosabati haqidagi bilimga ega bo'lish, xalq og'zaki ijodining sinkretik san'at ekanligini, boshqa san'at turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish, o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi, shuningdek, folklor namunalarini tahlil qilish, ularni xalq orasidan |

| | | | | |
|----|--------------------------------------|----------------|-----|---|
| | | | | yig'ish va tasniflash ko'nikmasini hosil qilishga yordam berish. |
| 3. | Folklorshunoslik nazariyasi | 302FN 1 9 | 1 | Folklorshunoslikning nazariy masalalari bo'yicha chuqurroq o'rganish, shuningdek, o'zbek folklorshunosligida yetakchi bo'lgan ilmiy yo'nalishlarni dunyo folklorshunosligi bilan qiyosiy o'rganish. |
| 4. | Areallingvistika | 302ARL 1 9 | 1 | Areal lingvistikating fan sifatida shakllanishi, uning dialektologiya, geografiya va areologiya fanlari nazariyasi va uning asosiy tushunchalarini umumlashtirishi, jahonda va turkologiyada, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida o'rganilish holati to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lism, uning metodlari, takson va taksonomiya, til va dialektal zona, dialektal kontinuum, lingvistik kartalarni tuza olish ko'nikmalariga ega bo'lism. |
| 5. | O'zbek shevalari tadqiqotlari tarixi | 302O'ST 2-3 10 | 1-2 | Hududda mavjud shevalarni tadqiq qilish, ularni turli xususiyatlar jihatidan tasnif qilish, shu paytgacha va tarixda dialektolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan isharni o'rganish kabi masalalarni o'rganish. |
| 6. | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi | 302MFO'M 1 2 | 1 | Maxsus fanlardan zamonaviy dasturlar va darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmuni, ta'limga doir meyoriy hujjatlar bilish; mashg'ulotlarda mavzuni o'quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqib o'tish usullari borasida zamonaviy bilimlar, pedagogik mahorat va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lism. |

Tanlov fanlari

| | | | | |
|-----|---|--------------|---|--|
| 7. | O'zbek shevalari leksikografiyası | 302O'SHL 1 5 | 1 | O'zbek sheva va dialektlariga oid lug'atlarning turlari va ularning adabiy til lug'atlari bilan aloqadorligi, dialektizmlar va ularning turlari, dialektal lug'atning, lug'at maqolasining tuzilishini o'rganish. |
| 8. | Tarixiy dialektologiya | 302TD 1 5 | 1 | XIX asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy asarlar tilidagi dialektal so'zlar, ularning tasnifi, o'sha davr tili leksikasidagi o'ziga xosliklar, fonetik, morfologik xususiyatlar haqida tasavvur berish. |
| 9. | O'zbek mifologiyasi | 302O'M 1 7 | 1 | Turkiy miflarning paydo bo'lishi tarixi, rivojlanish jarayoni, mifologik obrazlar tahlili, bugungi kun xalq og'zaki ijodidagi ko'rinishlarini tahlillar asosida o'rganish. |
| 10. | Baxshichilik san'ati va xalq dostonlari | 302BSXD 1 7 | 1 | Xalq og'zaki badiiy ijodining yuksak professional san'at turi doston va dostonchilik bo'lib, uning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar faoliyatini bilan uzviy bog'langanligi, baxshilar va xalq dostonlari, doston kuylash tartibi, ustoz va shogird munosabati kabi masalalar mazkur fan |

| | | | | |
|-----|--|---------------|---|---|
| | | | | doirasida o'rganish, bugungi folklor janrlari genezisi va badiiyatida dostonlarning o'rni va xizmatini aniqlash, zamonaviy san'at va adabiyotda epik an'analarning yangi talqinlari haqida ma'lumot berish. |
| 11. | O'zbek xalq lirikasi | 302 O'XL 2 5 | 2 | O'zbek xalq lirikasi, janrlar tarkibi va tasnifi, marosim lirikasi, shomon qo'shiqlari janrlari, xalq qo'shiqlarida ramzlar, xalq qo'shiqlarining to'planishi, tasnif qilinishi va nashrlari, bu borada olib borilgan tadqiqotlar mazmuni haqida ma'lumot berish. |
| 12. | O'zbek xalq ertakshunosligi | 302 O'XE 2 5 | 2 | O'zbek folklori ertakshunosigini o'rganish, tasnif etish, uning tarkibini aniqlash, har bir ertakning xususiy belgilari, tabiat, badiiyatining yoritilishi haqida ma'lumot berish. |
| 13. | O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari | 302 O'SHT 2 2 | 2 | Hududda mayjud shevalarni tadqiq qilish, ularni turli xususiyatlar jihatidan tasnif qilish, shu paytgacha va tarixda dialektolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan tasniflarni o'rganish kabi masalalarni o'rganish. |
| 14. | Xalq og'zaki ijodi tili | 302 XOIT 2 2 | 2 | O'zbek xalq og'zaki ijodi tili, uning o'rganilishi, o'ziga xos xususiyatlarini tasnif qilish, tahlil qilish, u haqida ma'lumot berish. |

ToshDO'TAU o'quv
ishlari bo'yicha prorektori

S.Normamatov

O'quv-metodik bo'lim boshlig'i

V.Nazarov

O'zbek filologiyasi fakultet dekani

B.Abdushukurov

"Folklorshunoslik va dialektologiya"
kafedrasi mudiri

S.Ashirboyev